



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING TA'MINLANISHI VA QONUNLARDA KAFOLATLANGANLIGI

Axmedov Zokir Abdukarim o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agro
texnologiyalar instituti 1- bosqich talabasi

U. X . Rahmanov

Ilmiy rahbar, Andijon qishloq xo'jaligi va
agro texnologiyalar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarining davlat tomonidan ta'minlanishi va huquqiy kafotlanishi yoritilgan. Inson huquq va erkinliklari kafolatlari haqida, dastavval, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida balki xalqaro normativ hujjatlarda ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, huquq, modda, bob, davlat, Prezident, shaxs, fuqaro, ratifikatsiya.

Аннотация: В данной статье говорится о государственном обеспечении и правовых гарантиях прав и свобод человека в Республике Узбекистан. Гарантии прав и свобод человека упоминаются в законах Республики Узбекистан, а также в международных нормативных документах.



Ключевые слова: Конституция, закон, право, статья, глава, государство, Президент, человек, гражданин, ратификация

Abstract: This article highlights the provision and legal guarantees of human rights and freedoms by the state in the Republic of Uzbekistan. The guarantees of human rights and freedoms are reflected not only in the laws of the Republic of Uzbekistan but also in international normative documents.

Key words: Constitution, law, right/law, Article (of a law), chapter, state, president, human/person, citizen, ratification.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi va qonunlarda kafolatlanganligini O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasida hamda Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida ko'rishimiz mumkin. Inson huquq va erkinliklari Konstitutsiyamizning 40 dan ortiq moddalarida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat inson huquqlari bo'yicha bir qator majburiyatlar olgan bo'lib, ularga xususan davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanliklari, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini



huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlashi konstitutsiyamizning V, VI, VII boblarida keltirilganligini misol qilishimiz mumkin.

O'zbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farkli o'laroq aynan istiqlol tufayli yurtimizda inson xuquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shartsharoitlar yaratilgani bilan alohida ajralib turadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, bu O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Unda eng oliy qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizim emas, balki inson huquqi kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyaning 13 moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga kora inson, uning hayoti, erkinligi, shani, qadrqimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», deb belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb atalishining o'zi asosiy qonunning insonparvarligini ko'rsatadi. Uning har bir moddasida fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari, shaxsiy huquq va erkinliklar fuqarolarning siyosiy huquqyaari, ularning kafolatlanishi o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar hayotning barcha sohalarida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa munosabatlarda birbirlari bilan teng huquqqa ega boldilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining X bobi "Inson huquq va kinliklarining kafolatlari" deb nomlangan bo'lib, 54-58 moddalarni o'z ichiga oladi. "Davlat fuqarolarning Konstitutsioya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi." O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-modda.

Davlat huquq va erkinliklarni ta'minlash bilan bir qatorda ularni himoya qilishni ham o'z zimmasiga oladi. Har bir shaxs vakolatli davlat organlariga, muassalariga va xalq vakillariga murojaat qilish huquqiga ega. Shuni ta'kidlash joizki, davlatimizda inson huquq



va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabulxonalari ham mavjud bo'lib, qabulxona xalqimizga kamchiliklarsiz xizmat ko'rsatib kelmoqda. " Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

" Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning hamda boshqa tshkilotlarning, ular mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi." O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 55-modda.

Ayrim shaxslarning foydalanishi lozim bo'lgan imkoniyatlar qonunda belgilanib, ular faqat ijtimoiy adolat prinsiplari asosida bo'lishi korsatib quyildi.

Ayniqsa fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligi qonun bilan kafolatlanib, o'zlarining ixtiyoriga berilgan bo'lib, bu huquqlarning amalda oshirilishi meyoriy qonunlar bilan mustahkamlandi. Jumladan, fuqarolarning dinga munosabati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida»gi (1998 y.) qonun bilan tartibga solindi, hamda ularning daxlsizligi taminlanmoqda.

Mustaqillikka erishgandan keyingi yillarida katta yutuqlardan biri shundaki, O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson xukuqlarining muxofazasi va kafolati, e'tiqod, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, talim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa imkoniyatlar qonun bilan himoya qilinadigan bo'ldi. Bu borada shuni takidlash joizki, hozirgi qiyin va ziddiyatli bir paytda mamlakatimizning turli sarhadlariga yaqin joylarda urushlar ro'y berib, qon to'kilib, begunoh odamlar qurbon bolib, sarsonsargardon kishilar ko'payib borayotgan bir sharoitda O'zbekistonda inson uchun eng oliy ne'mat yashash huquqi va osoyishta hayot kechirish huquqi to'la tamin etildi. Bir so'z bilan aytganda xuddi ana shu murakkab yillarda O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi yanada mustahkamlanib, yangi



demokratik jarayonlar odamlar ongi va qalbi orqali o'tkazilib, hayotga tobora chuqurroq kirib bora boshladi.

Huquqiy davlatda inson huquqlariga rioya etilishini kafolatlovchi ko'pgina usullar mavjud bo'ladi. Ular orasida alohida o'rin sud himoyasiga tegishlidir. Bu himoya shaklidan har bir odam foydalanishi mumkin. Buning uchun sudga sud muhokamasi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi ariza bilan murojaat qilish kifoyadir.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati boshqa hokimiyatlardan va har qanday davlat organlari, siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Mamlakatimiz bosib o'tgan so'nggi yillarga nazar tashlasak, amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy maqsadi insonning huquq va erkinliklarini har tamonlama ta'minlash va kafolatlash ekaniga amin bo'lamiz. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan yili qabul qilingan 70 dan ortiq qonunlarda ham inson huquqlari ustuvorlik kasb etadi.

Zamonaviy demokratik davlatlarda qabul qilinayotgan barcha qonunlar "o'zicha sudlashni" taq'iqlaydi. Avvalo 1948 yil 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining asosiy poydevori hisoblanadi. Ushbu deklaratsiyaning 5-moddasiga ko'ra "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak" deyiladi va shuningdek, konstitutsiyamizning 27-moddasida ham "Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas" deyilgan.



Shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ham "o'zicha sudlash" uchun og'ir jazo choralari belgilangan. Xususan, Buyuk Britaniyada 3 va undan ortiq kishi umumiy maqsad uchun qonunga xilof kuch ishlatga yoki shunday kuch ishlatish bilan qo'rqitsa, hamda ularning xatti-harakati o'sha yerda hozir bo'lgan boshqa shaxslarga o'z shaxsiy xavfsizligi uchun qo'rqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa, ushbu shaxslar zo'ravonlik harakatlarini sodir etishda aybdor deb topiladi hamda 5 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agar birgalikda hozir bo'lgan 12 va undan ortiq kishi umumiy maqsad uchun qonunga xilof kuch ishlatga yoki shunday kuch ishlatish bilan qo'rqitsa, hamda ularning xatti-harakati o'sha yerda hozir bo'lgan boshqa shaxslarga o'z shaxsiy xavfsizligi uchun qo'rqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa, barcha shaxslar ommaviy tartibsizlik sodir etishda aybdor deb topiladi hamda 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bunday holatlarni oldini olishimiz uchun qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, jamiyat a'zolarini bunday nohush holatlarni sodir etmasliklari haqidagi normalarni kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2021-yilning 22 fevral kuni BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46- sessiyasidagi nutqida "Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish doirasida biz odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo'lgan qiynoqlarning har qanday ko'rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo'l qo'ymaymiz. Bunday jinoyatlar qachon sodir etilganidan qat'i nazar, ular uchun jazo muqarrardir" deb ta'kidladilar. Ushbu so'zlar esa, O'zbekiston inson huquqlarini kafolatlash yo'lida komillik sari dadillik bilan ildamlayotganini bildiradi.

Hozirgi hunda yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat ekanligini hisobga olgan holda, huquq va erkinliklarning himoyasiga oid turli xil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda va bu xalqimiz manfaatlarini xizmat qilib kelmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Mirziyoev Sh.M. “ Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz “ Toshkent 2022. 146.
3. Prezident Sh. Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqi.
4. Bahodir Eshonov “ O‘zbekiston davlatchilgi “ T. “ Marifat “ 2010, 110-bet.
5. Baratov M.X. Davlat – fuqarolik huquqining huquqi sifatida. – T: TDYU 2019
6. Rahmonqulov H.R. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild. – T : “ Vektor Press “ 2010.